



BOLALARDA XULQ -ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Erkaboyeva Shohsanam Shamsiddinovna

*Farg'ona viloyati Dangara tumani MMTB tasarrufidagi 6-umumiy ta'limi
maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: *Xulq, xulq-atvor - axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *tobelik, xulqi og'ishganlik, deviatsiya, addiktiv xulq, atvor, depressiv xulq, agressiya*

KIRISH.

Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq - muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa. Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega; u odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi.

Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla ko'y doirasida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Axloq o'zini ezgulik va yovuzlik, adolat, insonparvarlik, fidoyilik singari ijtimoiylashgan tushunchalar va tamoyillarda namoyon qilsa, xulq yaxshilik va yomonlik, burch, jo'mardlik, mehmondo'stlik kabi tushunchalarda aks etadi, odob esa kamtarlik, insoflilik, bosiqlik, halollik, rostgo'ylik va boshqa axloqiy me'yorlarda ifodalanadi. Sharq falsafasi va axloq ilmida mazkur uch axloqiy hodisa, juda qat'iy chegaralangan bo'lmasada, bir-biridan farqli tarzda olib qaralgan. Yevropada esa xulq bilan axloq ko'p hollarda aynanlashtiriladi yoki ular bir-biriga sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi.



Xulq o'zicha, „sof-olinganda mavhum axloqiy hodisa, u inson xatti-harakatlarida aniqlik kasb etadi; ijobiy xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi xushxulqlilik, salbiy amallardagi ko'rinishi badxulqlilik deb ataladi. Xushxulq inson muloyim, shirinsuxan, oqko'ngil, mexribonlik bilan munosabatda bo'lsa, badxulq odam qo'pol, bemehr bo'ladi.

Addiktiv xulq-atvor-insonning ruhiy holatini o'zgartiruvchi narsalarni (alkogol va chekishni ham o'z ichiga oladi) noto'g'ri qo'llash orqali yuzaga keluvchi xulqatvorning buzilishi (ruhiy va jismoniy qaramlik vujudga kelgunga qadar).

Shaxsning og'ishgan xulqil o'ta murakkab va ko'p obrazli kategoriyasi ichida tobe axloq yoki bog'lanib qolgan deb nomlanuvchi guruhcha ajratiladi. Shaxsning tobe axloqi ozida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq korinib turgan shaklda ishga layoqatini yoqotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bu deviatsiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bolgan birmuncha keng tarqalgan turi.

Azal-azaldan tobe axloqning turli shakllarini piyonistalik, ortiqcha yeyish, azart o'yinlar va boshqai shqibozlikni nazarda tutgancha zararli yoki yakson etuvchi odatlar deb ataganlar.

Zamonaviy tibbiy adabiyotlarda patologik odatlar degan atama keng ishlatiladi. Bog'lanib qolish tushunchasi tibbiyotdan o'zlashtirilgan, hozirgi vaqtda nisbatan yangi va ommaviy atama hisoblanadi.

Tobelik atamasi ostida keng ma'noda kimgadir yoki lazzat olish yoxud moslashish maqsadida nimagadir suyanishga intilish¹ tushuniladi. Barcha odamlar ovqat, suv, havo kabi hayotiy muhim obyektlarga me'yoriyl² tobelikni his qiladilar. Ko'pchilik odamlar ota – onalari, do'stlari, turmush o'rtoqlariga sog'lom bog'lanib qolishni sezaдилar. Biz yuqorida aytayotgan tobelik esa bu psixik holatni o'zgartirish maqsadidaqandaydir modda yoki o'ziga xos faollikni iste'mol qilishga psixologik yoki jismoniy tobelik bilan bog'liq axloq, lazzat olish yoki moslashish maqsadida kimgadir yoki nimagadir suyanishga kuchli intilish. Agar bu tushunchaning tarixiy ildiziga murajaat qilsak, unda addictus – qarzi tufayli bog'langan shaxs (qarzi tufayli qullikka



hukm qilingan), o'tmishda ingliz zodagonlari dehqonlarga yil boshida katta qarz berib yil bo'yi ularga to qarzini uzgunicha hukmronlik qilib, tayziq o'tkazishgan.

Berilgan ma'lumotlarga muvofiq tobe axloqning quidagi shakllari bor:

- Kimyoviy bogliqlik (chekish, taksikomaniya, giyohga muxtojlik, dorilarga muxtojlik, ichkilikka bog'liqlik);
- Ovqatlanish axloqining buzulishi (ko'p yeyish, ochlik. Taomlardan voz kechish);
- Geymbling – o'yinga tobelik (kompyuterga bog'lanib qolish, azart o'yinlar);
- Jinsiy addiksiya (zoofiliya, fetishizm, vuayerizm, nekrofiliya, sadomazoxizm)

Hayot tarzi o'zgarishi bo'yicha odamlarda tobe axloqning yangi shakllari paydo bo'ladi, masalan, bugungi kunda kompyuterga tobelik juda tez tarqalmoqda va ayni paytda ba'zi shakllar deviantlik yorlig'ini yo'qotmoqda. Misol uchun yevropada birjinsli insonlarning nikohlanishiga ruhsat berilishi xaddan tashqari kofe ichish va shirinlik yeyishga tobelik. Bunday jarayonlarga yevropaliklar normal holat darajasida qarashadi. Internet sahifalarida amerikalik siyosatshunos olim Pakrik Byukenenning *Smert Zapadal* nomli kitobi paydo bo'li. E'tiborga molik jihati shuki, katta hajmdagi kitobning so'z boshidayoq muallif yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo'lgan voqealarni G'arbning taqdirini jamiyat ma'naviyatidagi inqirozlarga, jumladan, oila va nikoh, tug'ilish va o'lim tahliliga bag'ishlagan.

Byukenenning fikricha sanoati va yuqori texnologiyalari rivoj topgan jamiyatda odamlarning birdan boyib ketishi, to'kin hayotga erishishga bo'lgan egoistik intilishi ularni asl qadryatlarga, jumladan, oila va nikoh, yoshlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqardi. Bu gedonistik psixologiyani asosi hisoblanib, uning oqibati jamiyatda qator muammolarni keltirib chiqarayotganligini e'tirof etadi. Gedonizm – Shaxs va unung xulq – atvor motivlarida faqat nimadandir lazzatlanish, qoniqish va o'zidagi ichki ruhiy izzitoblardan holi bo'lishga intilishdir. To'g'ri, aslida insonning to'q va farovon hayotga intilishi, boy – badavlat yashashni



xohlagani ayb emas, lekin bunday to'kinchilik insoniylikka qarshi bo'lishi mumkin emas.

Bu gedonistik psixologiyani asosi hisoblanib, uning oqibati jamiyatda qator muammolarni keltirib chiqarayotganligini e'tirof etadi. Gedonizm – Shaxs va uning xulq – atvor motivlarida faqat nimadandir lazzatlanish, qoniqish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan holi bo'lishga intilishdir. To'g'ri, aslida insonning to'q va farovon hayotga intilishi, boy – badavlat yashashni xohlagani ayb emas, lekin bunday to'kinchilik insoniylikka qarshi bo'lishi mumkin emas. Muallifni tashvishga va havotirga solgan narsa narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o'zgarishlar yevropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarini ifodalaydi.

Masalan, bugungi yevropada tug'layotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug'ilayotganligi tug'ilishning keskin kamayib ketayotganligi, umuman ayollar o'zidan sog'lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, mablag'i yetarli bo'la turib, farzand tug'ib va uni voyaga yetkazishga ketadigan mablag'ni qizg'anayotganligi hamda tugish jarayoni va og'rig'idan qochayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Umuman g'arb ayollari turmushga chiqib, o'zidan munosib zurriyod qoldirish niyatidan tobora uzoqlashib bormoqdalar. Olimlarning mavjud ahvolni o'nglash uchun o'ylab topgan farzand tug'ilishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan nafaqalar hamda imtiyozlar kabi sai harakatlari bekor ketmoqda. Chunki g'arb ayollarini sog'lom oila qurib, unda so'lom avlodlarni tarbiyalashdan ko'ra mansab pog'onalaridan ko'tarilib, o'z manfaatlarini o'ylab yashash ko'proq qiziqtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, gedonistik psixologiya - mol – dunyo, pul va mansabparastlikka tobelik kabi illatlar yoshlarimiz ongida paydo bo'lmasligi, ochiq axborot makonida bemalol turli ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo'lgan hozirgi sharoitda ularni ezgu maqsadlarga yo'naltirish, ularda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Rozikova M., Aliyeva K. Psixologik tashxis metodikalari . – T., 2013. – B. 16

1. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. //uslubiy qo`llanma. – T. – 1998, 46-bet.
2. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o`rni. //uslubiy qo`llanma. – T. – 2008, 86-bet.
3. Internet ma'lumotlari